

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

**“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi mudiri dots. R.Omonov
16 iyun 2014 yil**

“TASDIQLAYMAN”

**“Iqtisodiyot” fakulteti dekani
i.f.d. A.Xurramov
20 iyun 2014 yil**

**“OHJlarida moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish
yo‘llarini o‘rganish”
(Qamashi paxta tozalash OXJ misolida)
mavzusidagi**

***BITIRUV MALAKAVIY
ISHI***

Bajardi:

**“Moliya” ta‘lim yo‘nalishi
Bitiruvchi IV-kurs M-468 guruh
talabasi Maxmadiyorov Luqmon**

Ilmiy rahbar:

**“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Azimova Hulkar**

**Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
16-sonli 16 iyun 2014 yil**

Qarshi-2014 yil

**Mavzu: “OHJlarida moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish yo‘llarini o‘rganish”
(Qamashi paxta tozalash OXJ misolida)**

Reja:

I-bob. Ochiq hissadorlik jamiyatlarida moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashning nazariy asoslari.

- 1.1. Ochiq hissadorlik jamiyatini boshqarishning tashkiliy asoslari.
- 1.2. Ochiq hissadorlik jamiyatini boshqarish xususiyatlari.

II-bob. Korxona moliyaviy faoliyati tahlili.

- 2.1. Ochiq hissadorlik jamiyatida dividendlarni aniqlash, hisoblab yozish va to‘lash tartibi.
- 2.2. Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatida moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning tahlili.

III-bob. Ochiq hissadorlik jamiyatilari faoliyati moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilovalar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Prezidentimiz mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida aksiyadorlik jamiyatlari xususida to'xtalib "Mamlakatimizdagi deyarli barcha ishlab chiqarish ob'ektlari aksiyadorlik kompaniyalari prinsipi bo'yicha tashkil etilgan, ammo ular o'z maqomiga qay darajada mos holda faoliyat yuritmoqda va o'z huquqlaridan qanday foydalanmoqda, degan savolni o'zimizga berib ko'raylik. Aksiyadorlik kompaniyalari o'zlarining bozor munosabatlariga mos maqomiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun yana qanday mexanizmlarni xarakatga keltirish zarur?" degan edilar. 1994 yil yanvarida "O'zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasida Prezidenti farmonining chiqishi fond bozorining rivojlanishiga yangi turtki bo'ldi. Davlat korxonalarini ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishga davlat tasarrufidan chiqarishning bosh yo'nalishi sifatida qaraldi, ular aksiyalarining bir qismi majburiy tarzda erkin savdoga qo'yilishi lozim islohotlarning yangi bosqichi xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalariga, ularni sotib olishni istovchi barcha uchun keng imkoniyat ochdi.

Ҳозирги кунда матбуатда, хўжалик доираларида, давлат бошқарувчи идораларида қимматли қог'озлар бозорига жуда катта е'tибор берилмоқда. Аксиyалар ва бирjалар ҳақида қандайдир сирли ва еришиб бо'лмайдиган нарса сифатида gapirilган вақтлар о'tиб кетди. Yuz minglab fuqorolarimiz aksiyador bo'lishdi, dividendlar olishmoqda, kompaniyalar umumiy majlisida ovoz bermoqda va qimmatli qog'ozlarga egalik qilish yoki qilmaslikning foydasi tug'risida xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Minglab korxona rahbarlari o'z vaqtining katta qismini aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan ishlash masalalariga dipozitoriyalar, birjalar, brokerlar bilan o'zaro munosabatlarga bag'ishlamoqdalar.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Ma'lumki , biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish

korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamoniviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'yganmiz"¹.

Mustaqillik yillari O'zbekiston aholisining investitsiya salohiyatini jiddiy ravishda oshirdi. Qisqa vaqt ichida kattaligi va tarmoqlarga tegishliligiga ko'ra terli xil bo'lgan, millionlab aksiyalarni muomalaga chiqargan, bir necha ming aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Aksiyalar bozori bilan bir qatorda davlat qisqa muddatliobligatsiyalarining bozori ham muvoffaqiyatli rivojlanmoqda. Davlat qimmatli qog'ozlari yurik shaxslar eng ishonchli turi sifatida nomoyon bo'ldi. depozit sertifikatlari, tijorat va bank veksillari bozorlari ham ma'lum daraja taraqqiy topdi. "Respublikamizning ko'pchilik aksiyadorlik jamiyatlari davlat korxonalari negizida tashkil etilib ular o'zining moddiy bazasiga, asosiy va aylanma sarmoyasiga ega"². Ko'pchilik aksiyadorlik jamiyatlari bu real mahsulot ishlob chiqaruvchi va real xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardir. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, ular ochiqchasiga muamalaga chiqariladi va keyinchalik boshqa aksiyadorlarning roziligisiz qo'ldan qo'lga o'tishi mumkin, hamda yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bilan birlamchi joylashtirilishida oldindan ajratib olingan sarmoyadorlar o'rtasida taqsimlanadi va faqat kompaniya umumiy yig'ilishining roziligi bilan qo'ldan-qo'lga o'tishi mumkin.

Vaholanki, jamiyat ishlabchiqarish kuchlarining rivojlanish qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan munhsabatning qayta ko'rib chiqilishini talav qilayotgan bugungi kunda, ochiq aksiyadorlik jamiyatining dolzarbligini keskin oshirdi. Chunki ayni qimmatli qog'ozlar ko'p jihatdan qiymatning qaytish harakati samaradorligini oshirish, mulkchilik shaklining o'zgarishi uni xususiy egalikka topshirishining muammolarining yechishning kaliti hisoblanadi. Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatining moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini

¹ I.A.Karimov "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari rivojlanishi barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" Xalq so'zi. 2014 yil 18 yanvar.

² "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" 2013 yil 3-son 61 bet.

aniqlash, uni tahlil qilish yo‘llarini, korxonaning boshqarish xususiyatlarini o‘rganish mavzuning dolzarbligini isbotlaydi.

Bitiruv malakaviy ishing maqsadi va vazifalari: Ochiq hissadorlik jamiyatining moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashning nazariy asoslari, korxona moliyaviy holati tahlili, ochiq hissadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llarini tavsiflash hisoblanadi.

Maqsadni hal etish uchun quyidagi vazifalarni o‘rganishni talab etadi:

- ochiq hissadorlik jamiyatining umumiy tashkiliy asoslarini izohlash;
- ochiq hissadorlik jamiyatini boshqarish xususiyatlari;
- ochiq hissadorlik jamiyatida jivedentlarni aniqlash, hisoblab yozish va to‘lash tartibi;
- Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatining moliyaviy holat tahlili;
- ochiq hissadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari;

Bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyati tanlangan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari: Respublika Prezidenti asoslari, yetakchi iqtisodchi omillar va mutaxassislarning ushbu mavzuga oid g‘oyalar, fikr va mulohazalar namayon etadi. Shuningdek, mazkur bitiruv malakaviy ishini tayyorlashida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlardan keng foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: Ishda nazariy hamda tashkiliy huquqiy jihatdan asoslangan holda ilgari surilgan fikrlar, uslubiy ishlanmalar, shu bilan birgalikda ochiq hissadorlik jamiyatining boshqaruvini samarali tashkil etilishi asnosida, uning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Mavzuni yoritishda kirish, 3 ta bob, har bir bobni qamrab olgan savollar, xulosa va takliflar, foydalanilgan

adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatining moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

I-bob. Ochiq hissadorlik jamiyatlarida moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy asoslari

1.1. hissadorlik jamiyatini boshqarishning tashkiliy asoslari

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan xo'jalik yuritishning turli tashkiliy huquqiy shakllari ichida keng rivojlangan aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishidagi tashkilotlarni barpo etish keng tarqaldi. Respublikamizda dastlabki aksiyadorlik jamiyatlari 1991 yilning boshida paydo bo'ldi. 1994-1997 yillarda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish jarayoni keskin taraqqiy etdi. Hozirgi kunda ularning soni 4 mingdan ortiq.

Aksiyadorlik jamiyati shaklida xo'jalik yuritishi boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga qaraganda qator ustuvorlarga ega. Birinchi galda aksiyadorlik jamiyatlari kichik, o'rta va yirik sarmoyadorlarning katta miqdordagi mablag'larini bir joyga to'plash imkonini beradi. Ushbu sarmoyadorlar o'z ixtiyoridagi aksiyalar miqdoriga yarasha korxonani boshqarishda ishtirok etish, qo'ygan sarmoyasining hajmiga qarab daromadlar olishi mumkin. Aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyati tugatilganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini olish, shuningdek, korxona ishtirokchilari (mulkdorlar)ning tarkibidan nisbatan tez chiqib ketish huquqiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish boshqa tashkiliy shakldagi korxonalarni boshqarishdan o'zining murakkabligi va ko'p bo'g'inligi (aksiyadorlar yig'ilishi kuzatuvchi kengash, boshqaruv) bilan farq qiladi, bu unga o'zini-o'zi nazorat qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tashkiliy shakldagi korxonalardan farqli ularoq, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvning ancha samarali tizimiga ega. Chunki faqat aksiyadorlik jamiyatigina nazoratning bir necha darajasiga ega. Birinchi daraja-bu jamiyatning ijroiya organi faoliyatini nazorat qiluvchi kuzatuvchi kengashdir. Ikkinchi daraja-bu jamiyatning ijroiya organi va kuzatuvchi kengashi faoliyatini nazorat qiluvchi aksiyadorlar yig'ilishi. Bundan tashqari, jamiyat aksiyadorlari sifidan tuzilgan taftish komissiyasi faoliyat ko'rsatadi. Boshqa tashkiliy shakldagi korxonalardan qarqliravishda, aksiyadorlik

kompaniyasi majburiy tarzda (qonun bo'yicha) mustaqil auditorni yolashi shart, u aksiyadorlik jamiyatining hisobot davridagi ishini baholaydi.

Jamiyatning boshqaruv yirik bitimlar, shuningdek, affilyatsiyalangan shaxslar manfaatdor bo'lgan bitimlarni kuzatuvchi kengash yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bilan majburiy ravishda kelishishi lozim. Shunday qilib, boshqa tashkiliy huquqiy shakldagi korxonalarga qaroganda, aksiyadorlik jamiyatlar turli xil (ishlab chiqarish moliyaviy, tashkiliy va h.k.) hatarlardan ko'proq himoyalangan. Aksiyadorlik shaklining ustunligi shundan iboratki, u global miqyosidagi masalalarda korxonaning faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish sohasida bir tamonlama qarorlarning qabul qilinishi ehtimolini eng kam (minimal) holatga keltiradi. Barcha eng muhim masalalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabulqilinadi. Har bir aksiyadorlik u yoki bu qaror uchun o'z ovozini berish va aksariyat hollarda s yoxid bu masala bo'yicha o'zining fikrini bildirish imkoniyatiga ega. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonunda keng doiradagi huquqlar hamda aksiyadorlar manfaatlarini himoyalovchi muassasalar nazarda tutilgan (Qonunning 114-116 moddalari, 27-29 betlarga qarang).

Boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarga qaraganda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarni chiqarish yo'li bilan katta pul va boshqa mablag'larni safarbar qilish, shuningdek korxona sarmoyasini shakllantirishga har xil sarmoyadorlarni (eng katta sarmoyadorlardan tortib, to mayda sarmoyadorlargacha) jalb etish imkoniyatiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni chiqarish va joylashtirish hisobidan ko'paytiriladi. Qo'shimcha aksiyalar jamiyat tomonidan faqat uning ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar miqdori chegarasida joylashtirilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki ularning umumiy sonini qisqartirish hisobidan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini jamiyatning o'zi tomonidan keyinchalik sundirilishi bilan xarid qilinishi hisobidan kamaytirilishi mumkin. Biroq, agar ustav fondining kamaytirilishi uning hajmini

qonunchilikda belgilangan eng kam miqdor bilan nomunosiblikka olib kelsa, jamiyat ustav fondini kamaytirish huquqiga ega emas. Aksiyadorlik jami ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilayotib, bu haqda 30 kun muddat ichida jamiyatdan o'z majburiyatlarining muddatidan oldin bajarilishining va bu bilan bog'liq zarurlarning qaplanishini talab qilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatida ustav fondi hajmining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Zaxira fondi jamiyatning sof foydasidan har yillik majburiy ajratmalar hisobidan ustavda belgilangan miqdorga yetgunga qadar shakllantiriladi. Har yillik ajratmalarining miqdori jamiyat sof foydasining 5 foizidan kam bo'lmashligi kerak.

Zaxira fondi aksiyadorlik jamiyatining zararlarini qoplash, obligatsiyalarni so'ndirish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha foizlarni to'lao' va talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyalarni sotib olish uchun, shuningdek, ustavda ko'zda tutilgan boshqa мақсадлар учун мўлжалланган.

Aksiyadorlik jamiyati o'z majburiyatlari bo'yicha unga tegishli butun mulki bilan javobgardir. Agar jamiyat tugatilayotgan bo'lsa, u sarmoyadorlar oldida ularning qo'lidagi qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatidan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'larini but saqlanishi uchun mas'uldir. Aksiyadorlar jamiyatining majburiyatlari bo'yicha javob berilmaydi. Ular faqat o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati miqdorida zarar ko'rish xatariga ega. o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyati ham aksiyadorlarning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Agar aksiyadorlik jamiyatining notchorlik (masalan, uning bankrotlikka uchrashi) uning aksiyadorlari yoki jamiyat uchun majburiy ko'rsatkichlarni berish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslarning xarakatlari tufayli sodir bo'lsa, u holda bunday aksiyadorlar va shaxslarga nisbatan ushbu majburiyatlar bo'yicha subsidlar (qo'shimcha) javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatining amal qilish muddati chegaralanmaydi. Biroq jamiyat ustavidabu muddat nazarda tutilishi ham mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda maxsus tugatish komissiyasi tashkil etiladi. Mazkur komissiya tugatish haqidagi e'lonni matbuotga

joylashtirish, kreditorlarni aniqlash va denitorlik qarzlarini undirib olish choralari ko'rish, tugatish balansini tuzatish kabi korxonani tugatishga doir tashkiliy choratadbirlar majmuini amalgam oshiradi. Tugatilayotgan jamiyatning kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanganidan keyin qolgan mol-mulki tugatish komissiyasi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida quyidagi ketma-ketlikda taqsimlanadi:

Birinchi navbatda, aksiyadorlar komissiyasi tomonidan aksiyadorlarning talabiga ko'ra sotib olinishi lozim bo'lgan aksiyadorlar bo'yicha to'lovlar amalgam oshiriladi;

Ikkinchi navbatda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblab yozilgan, lekin to'lanmagan dividendlar hamda imtiyozli aksiyalar bo'yicha jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatlari to'lanadi;

Uchinchi navbatda, tugatilayotgan aksiyadorlik jamiyatning mol-mulki aksiyadorlar oddiy aksiyalar va barcha xildagi imtiyozli aksiyalarning egalari o'rtasida taqsimlanadi. Har bir navbat bo'yicha mol-mulkni taqsimlash avvalgi navbatdagi mol-mulk to'liq taqsimlanganidan keyin amalga oshiriladi.

Agar jamiyat ixtiyoridagi mol-mulk hisoblab yozilgan, lekin to'lanmagan dividendlarni va bir xildagi imtiyozli aksiyalar egalari bo'lmish barcha aksiyadorlarga jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatlarni to'lash uchun yetarli bo'lmasa, u holda mol-mulk ushbu xildagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli mazkur xildagi aksiyalarga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

1.2. Ochiq hissadorlik jamiyatini boshqarish xususiyatlari.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish mulkchilikning boshqa shakllaridagi korxonalarni boshqarishdan ancha farq qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish organlari quyidagilar: aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuvchi kengash va ijroiya organ-boshqaruv yoki direksiya.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlik jamiyatini boshqarishning oily organi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati bir yilda bir marta aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishini o'tkazishi shart. Ushbu yig'ilish hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyuliga qadar o'tkazilishi lozim. Bundan tashqari, jamiyat navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni ham o'tkazishi shart.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, uning o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish usuli, umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik chog'ida aksiyadorlarga taqdim etiladigan materiallarning ro'yxati aksiyadorlik jamiyatining kuzatuvchi kengashi tomonidan belgilanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi faqat kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishi mumkin. Umumiy yig'ilishning maxsus vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qarorlar, yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarorlari yig'ilish o'tkazilmagan holda, sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berishda hammasi bo'lib jamiyatni ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 75%ga ega bo'lgan aksiyadorlar ishtirok etish kerak. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini aniqlash tadbiri alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ro'yxat aksiyadorlar reestri asosida jamiyat kuzatuvchi kengashi tomonidan umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan keyin va aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasigacha kamida 60 kun qolganda tuzulishi lozim. Ro'yxatga aksiyalar egasining nomi, har bir aksiyador uning mazmuni shuningdek unga tegishli aksiyalar miqdori haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur. Istalgan aksiyador jamiyatdan ushbu ro'yxatdan u bilan tanishib chiqish uchun talab qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining maxsus vakolatini tashkil etuvchi masalalar:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamenti tasdiqlash;
- ustavga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash;
- jamiyatni qayta tashkil qilish, tugatish, tugatish komissiyasini ta'minlash, oraliq va yakuniy tugashi balanslarini tasdiqlash;
- jamiyat kuzatuvchi kengashi tartibini va sonini belgilash, uning a'zolarini saylash hamda vakolatini muddatidan oldin tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning chegara miqdorini belgilash, ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish;
- o'z aksiyalarini sotib olish;
- aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organini tashkil etish (saylash, tayinlash, yo'llash) uning vakolatini muddatidan oldin tugatish, agar bu jamiyat ustavida kuzatuvchi kengashining vakolatiga kiritilmagan bo'lsa;
- jamiyat tavgish komissiyasining a'zolarini (tavgishchini) va ularning saylash vakolatini muddatidan oldin tugashi jamiyatni auditorini tasdiqlash;
- yillik hisobotlari, buxgalterlik balanslari, foyda va zararlar hisob raqamlarini tasdiqlash;
- aksiyaga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni xaird qilish uchun aksiyadorning ustunlik huquqi qo'llanmasligi haqida qaror qabul qilish;
- aksiyalarni maydalash va birlashtirish;
- jamiyat aktivlari balans qiymatining 50% dan ko'pini tashkil qiluvchi mol-mulk bilan yirik bitimlarni shuningdek, bitim bo'yicha to'lov so'mmasi va bitimning predmeti bo'lgan mol-mulkning qiymati jamiyat aktivlarining 5 foizidan ortiq bo'lgan manfaatli bitimlarni tuzish.

Aksiyadorlik jamiyatida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi ham o'tkazilishi mumkin. Kuzatuvchi kengashning qarori, tavgish komissiyasi, auditor yoki jamiyatni ovoz beruvchi aksiyalarning kamida 10 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarning talablari uni o'tkazish uchun asos bo'ladi. Bunda

yig'ilish uni o'tkasish haqida talablar qo'yilgan vaqtdan boshlab 45 kundan kechiktirilmagan muddatda o'tkazilishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatining (aksiyadorlar umumiy yig'ilishining maxsus vakolatiga kiruvchi masalalardan tashqari) faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish kuzatuvchi kengash tomonidan amalgam oshiriladi. Agar jamiyatni ovoz beruvchi aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar soni 30 nafardan kam bo'lsa, kuzatuvchi kengashning vazifalari jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishning zimmasiga yuklatiladi.

Kuzatuvchi kengashning a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi, bunda ular ijroiya organning a'zolari bo'la olishmaydi. Ovoz beruvchi aksiyalar rgalarining soni 500dan ortiq bo'lgan yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun kuzatuvchi kengash a'zolarining soni yeti kishidan kam bo'lmasligi, aksiyadorlarning soni ming kishidan ko'p bo'lgan jamiyatlar uchun esa, to'qqiz kishidan kam bo'lmasligi kerak. Kuzatuvchikengashning raisi kengash tarkibidan uning a'zolarining ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Jamiyatning kuzatuvchi kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan miqdorda qayta saylanishi mumkin. Ustav fondida davlatning ulushi 25%dan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatidagi davlatning vakili, shuningdek aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining jamiyatga tegishli paketini boshqarishga ishonch bildirilgan shaxs (uning vakili) o'z lavozimiga ko'ra kuzatuvchi kengashning a'zolari hisoblanadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylanishi shart emas.

Aksiyadorlik jamiyati kuzatuvchi kengashning vakolatlari:

- jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining maxsus vakolatiga doir masalalarni kiritish;

- jamiyatning ustav fondini aksiyalar nominal qiymatini oshirish, agar jamiyat ustaviga yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq unga bunday huquq berilgan bo'lsa;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilash;

- jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalar, obligatsiyalar vaboshqa qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, agar jamiyat ustavida, unga bunday huquq berilmagan bo'lsa;

- ijroiya organga to'lanadigan mukofotlar va tovon pullari miqdorini belgilash, agar jamiyat ustavida bu hol uning vakolatiga kiritilgan bo'lsa;

- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan mukofotlar va tovon pullarining miqdori bo'yicha tavsiyalar berish, auditorning xizmatiga haq to'lash miqdorini belgilash;

- aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va uni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar berish, jamiyatning zaxira va boshqafondlarini ishga solish;

- jamiyatni boshqarish organlarining faoliyat ko'rsatish tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni tasdiqlash;

- филиаллар барпо этиш ва жамиятнинг ваколатларни очиш;

- jamiyatning shu'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

- mol-mulkni xarid qilish va belgilashtirish bilan bog'liq yirik bitimlarni, shuningdek, manfaatli bitimlarni tuzish.

Kuzatuvchi kengashning majlisi uning raisi tomonidan o'z tashabbusi bilan kuzatuvchi kengash a'zosi, taftish komissiyasi yoki auditor, ijroiya organning, shuningdek, jamiyat ustavida belgilangan shaxslarning, talabiga ko'ra chaqiriladi. Kuzatuvchi kengashning majlisini o'tkazish uchun kvorum ustav bilan belgilanadi, lekin kengash a'zolarining 75 foizidan kam bo'lmasligi kerak. Kuzatuvchi kengashning qarorlari unda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

II-bob. Korxona moliyaviy faoliyati tahlili

2.1. Ochiq hissadorlik jamiyatida dividendlarni aniqlash, hisoblab yozish va to'lash tartibi

Divident-bu aksiyadorlik jamiyati foydasining soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiyalash amalga oshirilganidan keyin uning ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar urtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan bir qismidir. Aksiyadorlik jamiyati aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni pul mablag'larida yoki mol-mulk bilan to'lashi shart. Dividentlar aksiyadorlik o'rtasida ularga mutonosib ravishda taqsimlanadi. Aksiyadorlik jamiyati oraliq (har chorakda, ya'ni yilda bir marta) yoki yillik dividendlarni to'lashi mumkin. Oraliq dividendlar agarda ularning to'lanishi kompaniyaning moliyaviy-hujalik ahvolidan jiddiy yomonlashuvini keltirib chiqarmagan hollarda to'lanadi. Oraliq dividendlarni to'lash haqidagi qaror kuzatuvchi kengash tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlarni to'lash haqidagi qaror aksiyadorlarni jamiyati kuzatuvchi kengashning tavsiyasiga ko'ra umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilinadi. Bunda yillik dividendlarning miqdori kuzatuvchi kengash tomonidan tavsiya etilgan miqdordan katta bo'lmasligi va to'langan oraliq dividendlardan kam bo'lmasligi lozim. Aksiyadorlik kompaniyasi, hatto dividendlarning miqdori ustavda qayd etilgan bo'lishiga qaramasdan, ularni to'lamaslik yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liqsiz miqdorda to'lash haqida qaror qabul qilish mumkin.

Dividentlarni to'lash manbasi kompaniyaning joriy yildagi sof foydasi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar bu uchun maxsus shakllantiriladigan zaxira fondi hisobidan to'lanishi mumkin. Yillik dividendlarni to'lash sonasi aksiyadorlik jamiyatining ustavi yoki kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Biroq natijalari bo'yicha dividendlar hisoblab yozilgan yildan keyingi yilning 31 dekabridan kechiktirgan holda belgilanishi mumkin emas. Oraliq dividendlarni to'lash sonasi kuzatuvchi kengashining qarori bilan

aniqlanadi, biroq ushbu sana shunday qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 kundan oldin belgilanishi mumkin emas.

Aksiyadorlik jamiyati quydagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilish huquqiga ega emas:

- ustav fondi to'liq to'lanmaganda;
- agar dividendlarni to'lash vaqtida uning nochorligi (bankrotligi) belgilari mavjud bo'lsa yoki dividendlarning to'lanishi shunday belgilarni keltirib chiqarsa;
- agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav hamda zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati to'lanadigan dividendlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish lozim.

Belgilangan muddatlarda aksiya egasi yoki uning merosxo'ri tomonidan talabqilib olinmagan dividendlar da'vo muddati tugaganidan so'ng korxona ixtiyorida qoladi.

Davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish jarayonida muomalaga chiqarilgan aksiyalar ular belgilangan tartibga yangi mulkdorlarga sotilguncha qadar birlamchi joylashtirilgan va xususiylashtirish natijasida barpo etilgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan dividendlar ustav fondining dastlabki miqdoriga muvofiq muomalaga chiqarilgan aksiyalarning, shu jumladan, dividendlarni to'lash haqidagi qaror qabul qilingan vaqtda davlatga tegishli bo'lgan aksiyalarning sotilmay qolgan qismini barcha summasiga hisoblab yoziladi. Shunday qilib hozirgi kunda dividendlar muomalaga chiqarilgan barcha aksiyalar bo'yicha hisoblab yoziladi, emitent tomonidan erkin sotuv yoki xorijiy sarmoyador ulushidan sotib olingan va reyestr yopiladigan sanadan emitentning ixtiyorida (o'zining "depo" hisob raqamida) bo'lgan, emitent tomonidan mehnat jamoasining ulushidan sotib olingan va mehnat jamoasi a'zolarining o'rtasida joylashtirilmagan aksiyalar bundan mustasno. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasida aksiyadorlar reyestrallarida erkin sotuv va xorijiy

sarmoyador ulushining sotilmagan aksiyalarining egasi sifatida davlat o'zining vakolatli organi orqali ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 18 avgustdagi 404-sonli qaroriga muvofiq respublika Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibida xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan mulkning davlat umumiy bo'yicha dividendlarning hisoblab yozilishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish boshqarmasi hamda viloyatlar moliya idoralari tarkibida tegishli bo'limlar tashkil etildi. ular zimmasiga davlat mulkidan olinadigan daromadlarning barcha turlari hisobi va monitoringi, hisoblab yozishning to'g'riligi va to'liqligi davlat ulushi bo'yicha dividendlardan maqsadli foydalanish ustidan muntazam nazorat qilish, davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish hamda yuritish vazafalari yuklatilgan. Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligida ro'yxata olingan 1997 yil 24 oktabrdagi 372-sonli "Korxonalarining davlat poylari, aksiyalar paketlari bo'yicha dividendlardan foydalanishi nazorat qilish tartibi to'g'risida nizlm"ga muvofiq aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlar korxonaga faqat qaytarish asosida berilishi mumkin. Moliya yili yakuniga ko'ra Davlat mulk qo'mitasi yoki u tomonidan vakil etilgan organ korxonaning yoxud davlat ulushi aksiyalarini boshqarishi huquqi berilgan tarmoq boshqaruv idorasining iltimosiga ko'ra aksiyalar davlat ulushi bo'yicha dividendlarni qaytarilish asosida berish, korxonani rivojlantirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirish haqidagi masalani ko'rib chiqadi. davlat ulushi aksiyalar bo'yicha dividendlar Davlat mulki qo'mitasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan shartnoma asosida korxonaga korxonani rivojlantirish va texnik jihatdan qayta jihozlash uchun o'z mablag'lari yetishmagan hollarda ana shu maqsadlarda foydalanish uchun beriladi. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mulkning davlat ulushi bo'yicha dividendlarning hisoblab yozilishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish boshqarmasi aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlarning to'g'ri va to'liq hisoblab yozilishi ustidan muntazam nazorat qiladi hamda zarur hollarda maqsadli

foydalanilmagan dividendlarni respublika byudjetiga olib qo'yadi. Aksiyalarning davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatining rahbariyati nazorat qiluvchi organga hisobot yilidagi xo'jalik faoliyati yakunlari hamda aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha hisoblab yozilgan dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilingan sanadan boshlab 15 kundan kechiktirmasdar taqdim etishi shart. Aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlarni to'lashning eng so'ngi muddat dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilingan sanadan boshlab to'rt oydan oshmasligi kerak.

Aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlarning rivojlanish va texnik jihatdan qayta jihozlash uchun foydalanishini rejalashtirayotgan aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlik umumiy yig'ilishi utkazilgan sanadan boshlab 10 kundan kechiktirmagan holda bu haqda Davlat mulki qo'mitasiga va nazorat qiluvchi organga xabar berish lozim.

Davlat mulk qo'mitasi yoki vakolatli organ bilan aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlardan foydalanish uchun shartnoma imzolagan korxona nazorat qiluvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:

- korxona Davlat mulki qo'mitasi o'rtasida aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlarni topshirishi haqidagi shartnomanning nusxasi;
- korxonani rivojlantirish va texnik jihatdan qayta jihozlash biznes-rejasining nusxasi, unga muvofiq aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlar jalb etiladi;
- aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlarni jalbetish zaruratini asoslash;
- mablag'lardan maqsadli foydalanganlik, nazorat qiluvchi organga taqdim etilgan biznes-rejaning bajarilishi ahvoli haqidagi axborot va hisobotlarni taqdim etish jadvali (bunda hisobotlarning davriyligi yarim yilda bir martadan kam bo'lmasligi kerak).

Aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlardan foydalanuvchi korxona muntazam ravishda, bir yilda ikki marta nazorat qiluvchi organga hisobot beradi. Bunda quyidagilarni taqdim etadi:

- balans hamda foyda va zararlar haqidagi hisobotning nusxasi;
- aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlardan foydalangan va tasdiqlangan biznes-rejaning bajarilishi darajasi haqida hisobot;
- biznes-rejaning bajarilishi darajasi haqida hisobot;
- biznes-rejaning ayrim qismlarining bajarilmaganligi sabablarini asoslash va xatolarni to'g'rilash uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar dasturlari.

Nazorat qiluvchi organ aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlardan foydalanish evaziga texnik jihatdan qayta jihozlanish dasturining bajarilishini korxonaning o'ziga borgan holda rejali va rejadan tashqari tekshirishi mumkin.

2.2. Qamashi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatida moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

Qamashi paxta tozalash ochiq aksiyadorlik jamiyati faoliyati asosan, paxta qabul qilish va ularni sotish bilan shug'ullanib, shu orqali davlat iqtisodiyotiga moliya, barqarorligi va milliy boyligimizning to'liq yetishtirib, qabul qilib olinishi va bu mahsulotni asosiy qismini eksport qilishi va valyuta zaxiramizni oshirishga hissa qo'shadi. Bu korxona asosan, ochiq aksiyadorlik jamiyat bo'lganligi va boshqaruvning davlat tomonidan boshqarishiga asosiy sabab qimmatli qog'ozlarning asosiy ulushi egasi davlat hisoblanadi va paxta ham davlat monopoliyasi tarkibiga kiritilgan lekin olib borilgan iqtisodiy va moliya islohotlar natijasida mulk shakllari o'zgartirilib, mulkdorlarning paydo bo'lishi qishloq xo'jaligida o'z ijobiy samarasini namoyon etmoqda ya'ni fermer xo'jaligining tashkil etilishi va ularga servis xizmatining takomil borishi natijasida qulayliklarning yaratilishi, birinchi navbatda fermer xo'jaligining mahsulot hajmining oshishi va shundan kelib chiqqan holda, moliyaviy imkoniyatning kengayishiga zamin yaratdi. Bu esa o'z navbatida paxtaning qayta ishlash zavodlariga hali ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Қамаши пахта тозалаш очик ҳиссадорлик жамияти 2011-2012 йиллар молиявий фаолияти таҳлили

2.2.1-жадвал

